

NOTO‘LIQ OILADAGI BOLALARDA O‘ZINI BAHOLASH VA O‘ZIDAN QONIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Odinabonu Oxunjanova Ismoiljon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarning o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish xususiyatlarining psixologik jihatlari o‘rganilgan.

Maqsad: Noto‘liq oilada ulg‘aygan bolalarning o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash.

Usul: Psixologik tahlil, kuzatuv va amaliy adabiyotlar asosida ilmiy yondashuv qo‘llanildi.

Natija: Noto‘liq oilada ulg‘ayayotgan bolalarda o‘zini baholash darajasi ko‘pincha pastroq, o‘zidan qoniqish hissi esa beqaror bo‘lishi aniqlandi. O‘ziga bo‘lgan ishonch va ijtimoiy faollik salbiy ta’sirlanadi.

Xulosa: Noto‘liq oiladagi bolalarning ruhiy sog‘lomligi va ijobiy o‘zini baholashini ta’minlash uchun kompleks psixologik yondashuv zarur. Oila va jamiyat tomonidan keng yordam, motivatsiya va ijobiy muhit yaratilishi lozim.

Kalit so‘zlar: noto‘liq oila, bola psixologiyasi, o‘zini baholash, o‘zidan qoniqish, ijtimoiy muhit, motivatsiya, tarbiya, ruhiy yordam, shaxs shakllanishi.

Kirish

Noto‘liq oilada ulg‘ayayotgan bolalarning o‘zini baholash va o‘zidan qoniqishining psixologik xususiyatlari, zamonaviy psixologiya, pedagogika hamda ijtimoiy fanlarning diqqat markazida bo‘lib kelayotgan dolzarb ilmiy muammolar qatoriga kiradi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning dunyoqarashi, ruhiy jihatdan sog‘lom va barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi ko‘p jihatdan oiladagi muhit va unga mos sharoit bilan bog‘liq. To‘liq bo‘lmagan, ya’ni ota-onadan biri ma’lum sabablarga ko‘ra oilada bo‘lmagan holat, bola hayotiga salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday oilalarda bolalarning o‘z-o‘zini baholashi, o‘zidan qoniqish darajasi, o‘z qadrini anglash va jamiyatdagi o‘ziga bo‘lgan ishonchi o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bola uchun eng muhim, dastlabki ijtimoiylashuv maydoni aynan oila hisoblanadi. Oiladagi muhit, ota-ona va boshqa yaqin kishilar bola uchun asosiy psixologik tayanch, mehr va himoya manbai hisoblanadi. Bola davrida, ayniqsa maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshida, bolaning o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘zini baholash qobiliyati, harakatlariga ishonchi va hayotiy pozitsiyasi ko‘p jihatdan oiladagi atmosferaga, ota-ona mehriga, ularning tarbiyaviy yondashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga ham bog‘liq bo‘ladi. To‘liq oilada bola ikki turli psixologik model – ota va ona modelini mukammal ravishda namuna qilib oladi. Noto‘liq oilada esa, bu model bir

tarafli yoki yetarlicha to‘liq bo‘lmaydir, buning natijasida shaxsiyat shakllanish jarayonida turli psixologik to‘siqlar va muammolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Asosiy qism

Noto‘liq oilalarda ulg‘ayayotgan bolalarning o‘zini baholash xususiyatlari, avvalo ularning ijtimoiy holati, oilaviy muhiti, yashash sharoiti, qanday motivatsiya va qadriyatlar asosida tarbiyalanayotganiga bog‘liq. Bir tomondan, mehr va diqqat yetarli bo‘lmagan, oilaning beqarorlashuvi, ishonch va himoya yetishmasligi kabi omillar bola ruhiyatida turli negativ kechinmalarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, energiyani to‘liq ishlab chiqaruvchi, muammodan chiqish yo‘lini topishda asosiy psixologik resurs bo‘lib xizmat qiladigan pozitiv o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish hissining rivojlanmasligi bolaning ruhiy dunyosida nosog‘lom holatlarni keltirib chiqaradi.

Noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarda o‘zini baholash jarayoni, bir tomondan, oiladagi yetishmovchilikni bosa olishi, boshqalar bilan taqqoslashi, o‘zini atrofdagilar oldida qanday tutishi orqali namoyon bo‘ladi. O‘zini baholash insoniy shaxs sifatining eng muhim parametrlaridan va o‘ziga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy faollik, intilish, tashabbuskorlik to‘g‘ri shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bola o‘z hayotining dastlabki bosqichidan boshlab “men”ligini shakllantirishga intiladi, uning psixik rivojlanishida, ularning dam olish, o‘z-o‘zini boshqarish, do‘stlar orttirish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlarida ham mazkur parametrlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zini baholash va o‘zidan qoniqishni shakllantirish uchun ijtimoiy atrof, ijobiy tarbiya muhiti, ota yoki ona, amakilar, buvilar va boshqa yaqin kishilarning munosabati, shuningdek, maktab, do‘stlar va pedagoglarning ruhiy yordam ko‘rsatishi asosiy faktor sifatida namoyon bo‘ladi. Noto‘liq oilada ulg‘ayayotgan bola o‘zini to‘liq oila farzandi deb his qilmasligi, atrofdagi insonlarning “ota yo‘qligi” yoki “ona yo‘qligi” haqidagi gap-so‘zlarini og‘riqli qabul qilishi mumkin. Bu esa o‘zini baholashi, o‘z qadrini anglash tizimida muammo yuzaga chiqaradi. Bunday bolalar ko‘pincha o‘zini pastroq baholashga moyil bo‘lib, ayrim hollarda o‘ziga bo‘lgan ishonch kamayadi, orzularga yetishishda ikkilanish va noaniqliklar paydo bo‘lishi mumkin. Psixologlar ta’kidlashicha, bolalarning o‘z-o‘zini baholashi va o‘zidan qoniqish psixologik kategoriya sifatida, uch asosiy ko‘rsatkichda namoyon bo‘ladi: birinchisi — bola o‘zining layoqatiga, ijtimoiy va shaxsiy fazilatlariga qanday baho beradi, ikkinchisi — bola hayotidagi voqea va holatlarni qanday qabul qiladi, uchinchisi esa — kelajakka nisbatan qanday umid va intilishlarga ega. Noto‘liq oilada esa bu ko‘rsatkichlarda, doimiy ravishda, muayyan darajadagi nuqson yoki yetishmovchilik kuzatilishi mumkin. Bolaning o‘zini baholash jarayonini shakllantirishda, ular uchun yetishmayotgan mehr va e’tibor o‘zi uchun muhim kishilardan olinmasligi, ijtimoiy himoya yetarli emasligi, oilaviy notinchlik, ba’zi hollarda iqtisodiy muammolar, psixologik og‘irliklar va ijtimoiy cheklanma kabi omillar muhim rol o‘ynaydi [1].

Hozirgi davr psixologiya fanida, noto‘liq oilada tarbiyalangan bolalarning o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish darajasi past bo‘lishining asosiy sabablarini tahlil qilgan holda, quyidagi xulosa va yondashuvlar ishlab chiqilgan: birinchisi, bolalar o‘z hayotidagi

muammolarga ko‘proq tahliliy yondashishga, o‘z muammolarini mustaqil hal etishga urunadi, buning natijasida psixologik jihatdan kuchli yoki aksincha, o‘zini rad etuvchi xususiyatlar rivojlanadi. Ikkinchisi, bola o‘z qadri va o‘rnini o‘zining harakatlari, jamiyat va maktabdagi faol ishtiroki orqali shakllantiradi. Uchinchi muhim jihat, bu — bolaning o‘ziga bo‘lgan hurmat va atrof-dagi insonlardan, ayniqsa, qolgan ota yoki onadan ko‘rsatilayotgan ijobiy hamda mehribonlik asosida vujudga keladi. Bolaning o‘zini baholashi va o‘zidan qoniqishi, yoshiga ham bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy baho — ota-onadan, yaqin kishilardan olgan mehr, e‘tibor, maqto‘v va rag‘bat orqali shakllanadi. Bolalar o‘zini qanday anglashini, qadrini his etishini va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashini asosan oiladagi gap-so‘z, muomala, imkoniyatlar va o‘ziga bo‘lgan munosabat ta‘minlaydi. Keyingi bosqich, ya‘ni boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshida bolalar o‘z ijtimoiy statusini kengaytiradi, sinfdoshlari, pedagoglar, oila tashqarisidagi yaqin insonlarning munosabatini asos sifatida oladi. Bu davrda noto‘liq oiladagi bolalar, ko‘proq ijtimoiy doiralarga kirishga harakat qiladi, boshqalardan o‘zining o‘rni borligini, qiymatli inson ekanini ta‘kidlovchi munosabatlarga juda ehtiyoj sezadi [2].

Noto‘liq oilada o‘sayotgan bolalar, ayniqsa erkin va ochiq muloqot imkoniyatlari cheklanganda, o‘zini kamchilikli deb hisoblab, o‘z-o‘zini past baholashga moyil bo‘ladi, ayrim hollarda esa, aksincha, o‘zini kuchli, boshqalardan ustun ko‘rsatish orqaligina ichki kamchiliklarni yashirishga intiladi. Bunday psixologik xususiyat boladagi hissiy beqarorlik, zo‘riqish, tashqi va ichki muammolarga nisbatan noravshan munosabat, iqtidorgi cheklovchi komplekslar, chekinish yoki passivlikka moyillik sifatida aks etishi mumkin. Bolaning o‘zini baholashidagi bu mujmal jihatlar o‘z navbatida uning o‘zidan qoniqish tuyg‘usida ham aks etadi. O‘zidan qoniqish — inson shaxsiyatining chuqur nuqtalari, ruhiy mustahkamlik, hayotiy tajriba va ijtimoiy faollik bilan bog‘liq kategoriyadir. Noto‘liq oilada ulg‘aygan bola o‘z hayotidagi qaysidir jihatni baxtsizlik, nuqson yoki bo‘shliq deb qabul qilishi mumkin. Bunday bolalarda o‘zini qoniqtirish uchun ko‘proq tashqi yordam, yaqin insonlar roziligi, hamdardlik, qo‘llab-quvvatlash va motivatsiya kerak bo‘ladi. Noto‘liq oiladagi bola, ko‘pincha, boshqa tengdoshlar atrofida o‘zini ishonchsiz tutishi, mustaqil qaror qabul qilishda ikkilanib qolishi mumkin. Bunday holatda bolaning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topish ham qiyinlashadi. Noto‘liq oilada ulg‘aygan bolalarning o‘zini baholash darajasi, eng avvalo, ularga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy-psixologik yordam — ya‘ni maktab psixologlari, tarbiyachi va pedagoglar, ijtimoiy xodimlarning dastlabki yordami bilan bog‘liq. Bola uchun oilada yetishmayotgan hissiy bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilish, uni ijtimoiy muhitga samarali jalb etish, xususan, sinf jamoasi, do‘stlar va yaqin insonlarning ruhiy ko‘magini oshirish, boladagi salbiy psixologik hissiyotni kamaytirishga yordam beradi. Notinch muhitdan kelib chiqib, psixologlar tomonidan bolalarda ko‘proq individual yondashuv, mustaqillik hissin oshirish, ishonch va motivatsiyani kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar, maxsus trening va mashg‘ulotlar olib boriladi. Bolalarning o‘zini baholashi, o‘zidan qoniqishini oshirish uchun, eng avvalo, ularning ichki resurslari va individual xususiyatlariga e‘tibor berish zarur. Bolani

ijtimoiy hayotga samarali jalb qilish, ularning o‘zini namoyon qilishiga imkon yaratish, mustaqil fikr bildirishga rag‘batlantiruvchi mashg‘ulot va tadbirlar tashkil qilish, bolaning hayotida erkinlik va ijobiy motivatsiyani oshiradi. O‘z-o‘zini baholash jarayonida bola doimiy ravishda o‘zi bilan ishlashi, o‘zidagi ijobiy tomonlarni anglash, maqsadlar qo‘yish va unga erishish jarayonida o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishi shart. O‘zidan qoniqish esa, bolaga kuchli irodaviy tayanch, hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun ishonchli ichki basis bo‘lib xizmat qiladi [3].

Bolaning o‘zidan qoniqishi va o‘z-o‘zini baholash darajasi, barqaror psixologik muhit va ijobiy oila qadriyatlari asosida shakllanishi zarur. Oila, maktab, ijtimoiy institutlarning hamkorligi, ruhiy-psixologik maslahatlar, individual va guruhli ishlovchi dasturlar, bolalarning ijtimoiy loyihalarga, sport va madaniy tadbirlarga keng jalb etilishi, bolaning o‘z-o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish xususiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zini baholash va o‘zidan qoniqish darajasining pasayishi muammoli hududlarda, iqtisodiy ahvol sust, oilaviy ziddiyatlar ko‘proq uchraydigan hududlarda ko‘proq uchraydi. Bunday muhitda ulg‘ayayotgan bolalarda kelgusida psixologik muammolar, ruhiy bosim, yuragi toraygan va hayotga bo‘lgan umidini yo‘qotgan holatlar kuzatilishi mumkin. Bu esa, albatta, davlat va jamiyat tomonidan alohida e‘tibor, ijtimoiy-psixologik himoya, sog‘lom turmush va madaniyat muhitini mustahkamlash orqali bartaraf etilishi mumkin. Noto‘liq oilada tarbiyalangan bolalarda o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish xususiyatlarining sog‘lom shakllanishi uchun, ularning o‘z hayotida maqsad belgilashga, ijtimoiy guruh va jamoalarga qo‘shilishiga, doimiy ruhiy va axloqiy rag‘bat talablariga to‘laqonli javob beruvchi muhit yaratish muhim. Pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar, oila a‘zolari hamkorligida olib boriladigan puxta va tizimli ishlar orqali bolalarga ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish orqali ular o‘zlarini qobiliyatli, kuchli, ishonchli inson deb his qilishlari uchun imkoniyat ochiladi [4].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, noto‘liq oilada o‘sayotgan bolalarning o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish xususiyatlari nozik va e‘tibor talab qiladigan ijtimoiy-psixologik muammolardan biridir. Bu muammo kompleks yondashuv, oila, maktab va hamjamiyat hamkorligini, bola hayotida ijobiy muhit, motivatsion tarbiya va ijtimoiy yordam tizimini amaliyotda joriy etishni talab etadi. Bolaning ijtimoiylashuvi, ichki motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va hayotga faol kirib borishi, uning ichki psixologik dunyosi va o‘ziga bo‘lgan e‘tibor darajasini aniqlaydi. Shu bois, noto‘liq oilada ulg‘ayayotgan bolalarda ijobiy o‘zini baholash va o‘zidan qoniqish hissining shakllanishiga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish, ular uchun motivatsion va ma‘naviy muhit yaratish, har bir bola o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘. Qodirova. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
2. Sh. Bozorov. Bola va ijtimoiy muhit. – Toshkent: Fan, 2018.
3. X. Murodova. Shaxsni tarbiyalash asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. I. Rajabov. Psixologik muhit va bola taraqqiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Oila” kodeksi va me’yoriy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2023.
6. S. Karimova. Bola huquqlari va psixologik himoya. – Toshkent: Ma’rifat, 2021.
7. M. Iskandarov. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
8. E. Rahimova. Oila va bola tarbiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
9. D. Olimova. Bolalar rivojlanishida oilaning o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
10. R. Jamolova. Notinch oilada bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.